



# Mehnat ekspluatatsiyasining oldini olaylik



YIT qurilish kompaniyasi korrupsiyaga, yashirin iqtisodiyotga va mehnat ekspluatatsiyasiga aslo toqat qilmaydi.

Obyektlarimizda ishlaydiganlar orasida ishchilarimiz bilan bir qatorda pudratchilarimiz va ularning subpudratchilari ham bor. Ishchilarimiz farovonligi biz qilayotgan har bir ishning asosidir va biz har bir kishidan inson huquqlarini hurmat qilishni talab qilamiz.



## Mehnat ekspluatatsiyasining belgilari quyidagilar:

- ✓ Yozma mehnat shartnomasi tuzilmagan bo'lsa
- ✓ Alohida shartnomasiz bir necha kun davomida, dam olish kunlaridagi va kechki ishlarning soni ko'p bo'lsa
- ✓ Yetarli tanaffuslar berilmagan bo'lsa
- ✓ Ish vaqtini ro'yxatga olish yetarli bo'lmasa
- ✓ VALTTI kartasida ish beruvchining ism va ma'lumotlari noto'g'ri kiritilgan bo'lsa
- ✓ Umumiy turar joy undagi ishchilar soniga nisbatan juda kichik bo'lsa
- ✓ Ishga kirish uchun pul to'lansa yoki ishga qabul qiluvchi yoki ish beruvchidan qarzdor bo'lsa
- ✓ Xizmat safari va/yoki turar joy uchun ish beruvchiga to'lov qilinsa
- ✓ Shaxsning pasporti va boshqa shaxsiy hujjatlari boshqa shaxsda bo'lsa



## Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, mehnat ekspluatatsiyasidan shubhalansangiz, quyidagilardan biriga murojaat qiling:

- Asosiy pudratchi vakili yoki nazoratchisi
- YIT Bosh ishchi vakili Jussi Sakari: **+358 50 390 2147** telefon raqami yoki Hududiy ishchilar vakillari orqali ham aloqaga chiqishingiz mumkin
- Finlyandiya kasaba uyushmalari markaziy tashkiloti ( SAK) immigrantlar uchun maslahat xizmati: **workinfinland@sak.fi**. Shuningdek, siz **+358 800 414 004** raqamiga telefon qilib SAK mutaxassislaridan yordam olishingiz mumkin.

## Anonim tarzda yordam olishingiz ham mumkin:

- Finlandiya Jabrlanuvchilarga yordam xizmati (RIKU) ishonch telefoni: **116 006** (agar Finlyandiya tashqarisidan telefon qilsangiz, **+358 40 9401 867** raqamiga) yoki RIKU huquqiy maslahat **+358 800 161 177** raqamiga telefon qiling
- Odam savdosi qurbonlariga milliy yordam ko'rsatish tizimi: **+358 29 546 3177**
- Telefon yoki quyidagi havola orqali YIT Ethics kanali: **https://report.whistleb.com/en/yit**